

BAXTIYOR ABDUG‘AFURNING “MADAMINBEK: QONLI GULLAR VODIYSI” TARIXIY ROMANIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI.

Soliyev Shoxrux Xolmuxammad o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tarixiy asarda tarixiy shaxsning ochib berilishi, asarning muhim o‘ringa ekanligi ko‘rsatib berilgan. Baxtiyor Abdug‘afurning “Madaminbek:Qonli gullar vodiysi” tarixiy romanida Madaminbek, Shermuhammadbek, Maqsudbek obrazlari, tarixiy haqiqat va xarakteri ochib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: Tarixiy shaxs, obraz, Baxtiyor Abdug‘afur, “Madaminbek:Qonli gullar vodiysi”, xarakter, tarixiy haqiqat, Shermuhammadbek obrazi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье показана важность раскрытия исторической личности в историческом произведении. Исторический роман Бахтияра Абдугафура «Мадаминбек: Долина кровавых цветов» раскрывает характеры Мадаминбека, Шермухаммадбека, Максудбека, историческую правду и характер.

Ключевые слова и фразы: Историческая личность, образ, Бахтиёр Абдугафур, «Мадаминбек: Долина кровавых цветов», персонаж, исторический факт, образ Шермухаммадбека.

ABSTRACT

This article shows the importance of revealing a historical figure in a historical work. Bakhtiyor Abdugafur's historical novel "Madaminbek: Valley of Bloody Flowers" reveals the characters of Madaminbek, Shermuhammadbek, Maksudbek, historical truth and character.

Keywords and expressions: Historical person, image, Bakhtiyor Abdugafur, "Madaminbek: Valley of Bloody Flowers", character, historical fact, image of Shermuhammadbek

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. "Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan tasirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon



xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit sujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi." [1] Binobarin, tasvir va taassurot orasidagi bog'lam voqelik ikkilanganligiga yo'l ochadi. Mavjud holatda janr barqarorligi va sujet halqasi o'zaro uyg'unlashadi. Unda ijodiy tanlov, umumlashma va hayotiy muqoyasa tasvir ruhiyatini shakllantiradigan omilga aylanadi. Boshqacha aytganda, hayot haqiqati va badiiy to'qima bir-biriga tutash nuqtalari ham janr tadriji, ham poetik tarhga tasir o'tkazadi. Qahramon va voqelik muallif konsepsiyasi tasvir orasidagi aloqa hamda tafovut obyektini tubdan yangilaydi. Hayotiy mantiqdan keyin o'zbek adabiyoti ijodkor fitratida maromiga yetadi. Mustaqillikka yetishganimizdan keyin o'zbek adabiyotida yangi mezonlari qaror topdi, bir qancha adabiy manbalar kashf etildi, yangi nomlar ro'yobga chiqdi.

Baxtiyor Abdug'afurning "Madaminbek:Qonli gullar vodiysi" tarixiy romanida Madaminbek qat'iyatli, o'ziga ishonchi baland, ma'rifatparvar, ilmli, jasur, dovyurak, aqlli, shoirtabiat, ko'ngilchan, zehni o'tkir, adolatparvar inson sifatida tasvirlangan.

Asarda ko'plab tarixiy shaxslarni uchratishimiz mumkin. Bular Madaminbek, Saodat aya, Shermuhammadbek, Kichik Ergash, Katta Ergash, Frunze va boshqalar.

"Madaminbek:Qonli gullar vodiysi" asarida Madaminbek quyidagicha tasvirlanadi "o'rta bo'ylik, oq yaktak ustidan marg'iloncha to'n kiygan, nigohi vazmin va sinovchan boquvchi, belbog'iga to'pponcha qistirgan, qo'nji baland etik kiygan yigit turardi.[2] Yana bir o'rinda esa "Madaminbek o'rta bo'ylik, to'ladan kelgan, qizilga moyil yuzlik, xotirjam va o'ziga ishonch bilan gapirguvchi yigirma olti yoshlardagi yigit edi. Uning qat'iy, qandaydir sirli, o'tkir nigohi suhbatdoshlarini muvozanatdan chiqarishga qodir edi.[2] Demak Madaminbek qo'lga qurol olib bolsheviklarga qarshi kurashyotganda endigina yigirma olti yoshda ekanligini ko'rmoqdamiz. Romanda Shermuhammadbek quyidagicha tasvirlanadi: "U uzun bo'ylik, qotmadan kelgan, taqa mo'ylov, ko'zlari yirik va kishiga jiddiy boqadigan, Madaminbek bilan tengdosh yigit edi.Qo'nji tizzasiga yetgan qora etik kiygandi." [2] Shermuhammadbek ruslarga tamoman qarshi edi, Madaminbek rus polkovnigi bilan hamkor bo'lganda undan xafa bo'ladi, ammo tezda yarashib olishadi. Asardagi yana bir qahramon Maqsudbek esa "Masudbek yigirma bir-yigirma ikki yoshlardagi, xiyla baland bo'ylik va to'liq gavdalik yigit edi. Qora qoshlariostidagi ko'zlari gohida jiddiy boqar, gohida ma'yuslik zohir etardi. Chiroyli bug'doyrang chehrasiva



ko'zlari uyg'unlikda og'ir-bosiq sajiyali, nozik qalbli yigit ekanligini ko'rsatib turardi." [2] Ko'rib turganimizdek Maqsudbekning ko'zlari jiddiy va ma'yus, ya'ni uning boshiga ulkan baxtsizlik yuz berganini sezishimiz mumkin.

Romanda Madaminbek qobilyatli, zehni o'tkir, shoirlika moyil inson bo'lgan. Bu ham asarda o'z ifodasini topgan. Masalan asarda Bekni savodi bor ekanligi hamsaboqdoshi Hojixon Maxsum tilidan berilgan. Madaminbek va Hojixon Maxsum Mirhadarning ilg'or usuldagi maktabida tahsil olgani, madaminbekning bir o'qigan narsasini shundoq yod olishi, o'shandayoq Qur'onni yod olib qori bo'lganligi tariflab o'tilgan. Shuningdek, Madaminbekni Fuzuliy va Navoiy g'azallarini yod olganligi Maqsudbek bilan suhbatda ochib beriladi. Asarda " – Ularni men ham qo'limga olib turaman. Ayniqsa Fuzuliy. Hazrat Navoiy esa Benazir! Kishiga kuch beradi uning misralari... – Madaminbek ko'zlarini xiyla yumib, yoddan bir g'azalni o'qiy boshladi:

Hajr o'turdi meni, anglasam erdi muncha,

Do'stlar yordin ayrilmasdim o'lguncha.

Zohido, do'zax o'tida meni ne qo'rquvasan?

Hajr o'ti qoshida ko'rmasmen oni uchquncha.. [2]

Ushbu g'azal Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidan olingan. Demak, ko'rib turganimizdek Madaminbek marifatparvar va shoirtabiat bo'lganligini kitobxon anglab yetishi qiyin emas.

Xulosa qilib aytganda asarda Madaminbek va Shermuhammadbek obrazlari orqali xalqni ozodlikka chiqarish uchun jon bergan fidoyi, jasur, adolat uchun kurashadigan insonlar, marifatli tarixiy shaxslar sifatida ochib berilganligi, sho'rolarga qarshi kurashgan yurt qahramonlari sifatida ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umurov H. Artistic psychology and modern Uzbek novelist. - Tashkent: Science, 1983.- B.69
2. Baxtiyor Abdug'afur Madaminbek: Qonli gullar vodiysi. – Toshkent: Akademya, 2023. – 496 b.
3. Alisher Ibodinov, Qo'rboshi Madaminbek, Yozuvchi. 1993., B.15.
4. Mansurxo'ja Xo'jayev, Shermuhammadbek, Sharq., T., 2008., 18-bet
5. Q. Rajabov, O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2002., 21-son.
6. Yo'lchiyev Q.V. Lirik she'rda badiiy makon muammosi. So'z san'ati xalqaro jurnali, 2020-yil, 5-son.
7. Baxtiyor G'ofurov, Qo'rboshi Madaminbekni kim o'ldirgan? 2020., 3-son

